ISSN 2181-6833

PEDAGOGIK MAHORAT

1
2024



ISSN 2181-6833
9 772181 683301

MUNDARIJA

№	Familiya I.Sh.	*Mavzu*	Bet
DOLZARB MAVZU			
1.	***ATADJANOV Mamirjon Yusupovich***	Shaxsiy hamda ijtimoiy darajada xavfsizlikka tahdidlar tranformatsiyasi	9
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA			
2.	***ABDIRASULOV Lochinbek Xusniddinovich***	Texnologiya darslarida o‘quvchilarda atrof- muhit muhofazasi tushunchalarini shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish	18
3.	***АВЕЗОВ Абдумалик Абдухоликович***	Алгоритмика и программирование как катализаторы развития критического мышления и творческих способностей учащихся	22
4.	***CHORIEV Ikrom Abdushukurovich***	Pedagog magistrlarning innovatsion kompetentsiyalari	26
5.	***MADATOV Ilhom Yusup o’g’li***	Aralash ta’lim darslarida qo’llaniladigan zamonaviy metodikalar tahlili	31
6.	***MIRAXMETOVA Laziza Farruxovna***	Talabalarda sanogen tafakkurni tadqiq etishning psixodiagnostik asoslari	39
7.	***МУХТАРОВА Азиза Ёркиновна***	Особенности личностной рефлексии в различных контекстах развития человека	43
8.	***SHAROPOV Mirjon Nurxon o’g’li***	Talabalarni axborot ta’lim muhitida texnik ijodkorlik faoliyatida tayyorlash metodikasini takomillashtirish	47
9.	***URAZBAYEVA Dilbar Abdullayevna, NIYAZOVA Nilufar Farhadovna***	Yetim va ota-ona qaramog’idan mahrum bo’lgan bolalar tashkiloti tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlash	51
10.	***NORQULOV Usmon Elomonovich***	Talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirishning didaktik shartlari	55
11.	***OLIMOV Laziz Yarashovich, ROZIQOVA Munisa Fazliddinovna***	Sud psixolog eksperti kompetentligining namoyon bo‘lishi	60
12.	***QODIROV Obid Safarovich***	Oilada yoshlar tarbiyasida salbiy xatti-harakatlarni oldini olishning psixologik omillari	68
13.	***QULMAMATOV Romazon Juma o‘g‘li***	Ta’lim muhitida raqamlashtirish texnologiyalarining roli	72
14.	***RAHIMOVA Indira Igorevna, RASHIDOVA Nodira***	O‘quvchilar ijtimoiy mavqeyiga ta’sir qiluvchi omillar	76
15.	***RAXIMOV Farrux Boltayevich***	Bo‘linma shaxsiy tarkibining harbiy mahoratini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari	80
16.	***RAXIMOV Fazliddin Ro‘ziyevich***	Maktab-internat o‘quvchilarining bolalar iqtidorini rivojlantirishning maktabgi boshqaruvi modelining nazariy asoslari	86
17.	***RO‘ZIQULOV Faxriddin Rasulovich***	Oilaviy nizolar va ajralishlarning ijtimoiy psixologik xususiyatlari	91
18.	***SARIMOVA Dildora Soataliyevna***	Malaka oshirish tizimida o‘qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari	96
19.	***SATTOROV Anvar Ergashovich***	Mashg’ulotlarda yosh voleybolchilarni tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlarini o’rganish orqali musobaqalarga tayyorlash yo’llari	101

PEDAGOG MAGISTRLARNING INNOVATSION KOMPETENTSIYALARI

Choriev Ikrom Abdushukurovich
O’zbekiston Respublikasi OTFIV huzuridagi talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi bo’lim boshlig’i, Respublika ma’naviyat-ma’rifat markazi tadqiqotchisi

Ushbu maqolada pedagogik ilmiy tadqiqotlarda induktiv va deduktiv metodlarning nazariy ahamiyati haqida so’z boradi. Shuningdek, induksiya olamining hodisalar sabablarini umumiy qonuniyatlari to’g’risidagi gipotezaga yetaklashi haqida so’z boradi. Deduksiya umumiy gipotezalardan natijalarni tajribaviy tekshirib ko’rish mumkin bo’lgan eksperimental tarzda ularni tasdiqlash, yoki rad etishga imkon yaratadi. Ilmiy tadqiqot ishlarining samaradorligi tadqiqotchining metodik madaniyati, zamonaviy ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanishiga bog’liqligi tahlil qilinadi. Avtor pedagog magistrlarni ijodiy faoliyatga metodologik tayyorlash samaradorligini oshirish maqsadida pedagogik tadqiqotlar o’tkazish maqsadga muvofiq degan xulosaga keladi.

Kalit so’zlar: *induktiv, deduktiv metodlar, pedagogik tahlil qilish, magistrlar, anketa, so’rovnoma.*

ИННОВАЦИОННЫЕ КОМПЕТЕНЦИИ ПЕДАГОГОВ-МАГИСТРОВ

В данной статье говорится о теоретическом значении индуктивных и дедуктивных методов в педагогических научных исследованиях. Говорится также о том, что индукция приводит мир к гипотезе об общих законах причин и явлений. Дедукция позволяет экспериментальным путём подтвердить или опровергнуть общие гипотезы, а результаты можно проверить экспериментально. Эффективность научно-исследовательских работ зависит от методической культуры исследователя, использования современных методов научного исследования. Автор приходит к выводу о целесообразности проведения педагогических исследований с целью повышения эффективности методической подготовки магистров педагогического образования к творческой деятельности.

Ключевые слова: *индуктивный, дедуктивный методы, педагогический анализ, магистры, анкета, опрос.*

INNOVATIVE COMPETENCES OF PEDAGOGUE MASTERS

This article talks about the theoretical importance of inductive and deductive methods in pedagogical scientific research. It is also said that induction leads the world to a hypothesis about the general laws of causes and phenomena. Deduction makes it possible to confirm or reject general hypotheses in an experimental way in which the results can be tested experimentally. The effectiveness of scientific research works depends on the methodical culture of the researcher, the use of modern scientific research methods. The author concludes that it is appropriate to conduct pedagogical research in order to increase the effectiveness of methodological preparation of pedagogic masters for creative activity.

Key words: *inductive, deductive methods, pedagogical analysis, masters, questionnaire, survey.*

Kirish. Jamiyat taraqqiyotining tezlashuvi, unda fanning ustuvorligi davrida ilmiy tadqiqot metodlari o’ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy tadqiqot samaradorligi izlanuvchining metodik madaniyati, zamonaviy ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanishiga bog’liq.

Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlarini fanining predmeti va obyekti, mavzuning tarixiyligi, nazariyligi, amaliyligi yoki fanlararo tutash bandida ekanligiga asosan tasniflash mumkin. Predmeti va obyektiga asosan, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega muammoni hal etish qonuniyatlari tamoyillari, omillarini argumentini aniqlash yo’llari, usullaridir.

Pedagogika tarixini o’rganishning ilmiy tadqiqot metodlariga tarixiy manbalarni pedagogik tahlil qilish, qadimgi yozuvlarni o’rganish, ta’lim-tarbiya tizimini aniqlash, mutafakkir olim va adiblarning asarlarini pedagogik tahlil qilish, natijaning olamshumul ahamiyati, natijaning bugungi kundagi ahamiyati, tarixiy manbalarni obyektiv tahlil etish, argumentli tavsiyalar ishlab chiqish kabilarni kiritish mumkin.

Bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik merosni qo’llash samaradorligini aniqlashda sotsiometrik, test, eksperiment, ilmiy tadqiqot metodlaridan ham foydalaniladi. Sharq xalqlarida adabiyot, adab-xulq, odob ta’lim-tarbiya borasida hayot darsligi sifatida qo’llanilgan.

Ilm-fanning hayotdan oldinda yurishi albatta, kelajakni asoslash, istiqbol yo’lini aniqlash uchun xizmat qiladi. Har qanday ilmiy tadqiqotlarning nazariy metodologik yo’nalishida o’ziga xos metodlar qo’llaniladi. Metodologik tadqiqotlarda, avvalo, dialektik qonuniyatlardan foydalaniladi. Jamiyat taraqqiyotining kontseptual asoslari ta’lim-tarbiya tizimini modernizatsiyalash istiqbolini belgilashda ta’lim mazmunini modernizatsiyalashda pedagogikaning umumiy qonuniyatlari, milliyligi, umuminsoniyligi, davr talabiga mosligi, fanlararo bog’liqligi qonuniyatlaridan kelib chiqadigan emperik metodlar qo’llaniladi. Bunda nazariy tadqiqotlar amaliyotda isbotlanishi, amaliy tajribalarni nazariy tahlil etilishi bir-biriga bog’liqdir.

Adabiyotlar sharhi. Nazariy tadqiqotlarda abstraktsiyalash, ijtimoiy eksperiment, modellashtirish, konferentsiya, induktiv hamda diduktiv kabi metodlar qo’llaniladi. Pedagogik tadqiqotlarda ilmiy bilishda nazariy metodlar bilan amaliy metodlar bir-birini to’ldiradi. Nazariy tadqiqotlarda analiz va sintez ilmiy bilish metodi keng foydalaniladi. Analiz pedagogik ilmiy tadqiqot ob’yektini qismlarga, turkumlash asosida alohida tahlil qilinadi. Sintez esa aksincha, ilgari ajratilgan bo’laklarni birlashtirish usulidir. Masalan, bir sinf yoki bir necha sinf o’quvchilarini alohida alohida tarbiyalaganlik yoki fanlarni o’zlashtirish darajasi holati o’rganiladi va umumlashtirib xulosa chiqariladi.

Nazariy tadqiqotda ideallashtirish abstraktsiyalashtirishning bir turi. Pedagogik ilmiy tadqiqotda abstraktsiyalashtirish, ideallashtirish tadqiqot metodi muhim o’rin tutadi. Abstraktsiyalashtirish pedagogik voqeylikni o’ziga xos belgilari, xususiyatlarini fikran ajratish, tabaqalashtirish jarayonidir. Ideal obyekt hosil qilinadi u asosda real obyektlarni bilish uchun nazariy tafakkurdan foydalaniladi.

Pedagogik ilmiy tadqiqotda induktiv va diduktiv metodlar nazariy xulosalar chiqarishning muhim shartidir. Induktsiya olamni hodisalarni sabablarini umumiy qonuniyatlari to’g’risidagi gipotezaga yetaklaydi. Deduktsiya umumiy gipotezalardan natijalarni tajribaviy tekshirib ko’rish mumkin bo’lgan eksperimental tarzda ularni tasdiqlash, yoki rad etishga imkon yaratadi.

Gipoteza nazariy tadqiqotning shakli va metodi. Nazariy tadqiqotning maqsadi emperik (amaliy) tadqiqot davomida mavjud voqeylik natijalarini tushuntirish, bashorat qilish, tizimlashtirishga imkon beradigan qonuniyat va tamoyillarni aniqlashdan iborat. Gipoteza ikki ma’noda ishlatiladi: muammoli g’oyalarni tushuntirib beruvchi va asoslovchi metod sifatida qonuniyat, tamoyil va nazariyalarni ifodalovchi yo’l. Gipoteza metodining birinchi bosqichi nazariy tushuntirish lozim bo’lgan dalil; ikkinchi bosqichi, hodisalar sabablari va qonuniyatlari to’g’risidagi taxmin; uchinchi bosqichi, farazlardan eng ishonarlisini tanlash, tekshirib ko’rish; to’rtinchi bosqichi, asoslanmasa ilgari surilgan farazdan voz kechish; beshinchi bosqichi, eksperimental tekshirish.

Hozirgi paytda nazariy va amaliy tadqiqotlarda keng tarqalgani modellashtirish usulidir. Zamonaviy axborot texnologiyalarining vujudga kelishi bilan pedagogik tadqiqotlarda modellashtirish imkoniyatlari kengaydi. Texnologik modellashtirish matematik va mantiqiy modellashtirishdan foydalanishni ham o’z ichiga oladi. Ta’lim-tarbiya jarayonining murakkabligi mavhumligi ilmiy tadqiqotida modellashtirish metodi katta imkoniyat yaratdi. Pedagogik amaliy tadqiqotning belgilaridan biri yangi natijalarni vujidga keltirish moddiy ma’naviy ijtimoiy tizimni o’zgartirishda ta’lim-tarbiya jarayonini shakllantirishdir.

Pedagogik voqeylik qonuniyatlarini aniqlash, nazariyani rivojlantirish omili fanning pragmatik darajasini oshirish imkonini beradi. Amaliyot ilmiy bilishning maqsadi, mezoni hisoblanadi. Pedagogik amaliy tadqiqot metodlari kuzatish, eksperiment, suhbat, anketa, ilg’or tajribalarni o’rganish, test, arxiv manbalarini o’rganish kabilarlardan iborat.

Pedagogik texnologiyalarni keng miqyosda joriy etilishi, amaliy tadqiqotlarda texnologik modellashtirish usulini qo’llashni taqazo etadi. Ta’lim-tarbiya jarayonining samarali texnologiyasini yaratish bo’yicha ilmiy pedagogik tadqiqotda fanlararo bog’liqlik metodlarini ishlab chiqish, qo’llash dolzarb masaladir.

Demak, ilmiy pedagogik tadqiqot metodlari madaniy merosini o’rganish, barkamol avlodni tarbiyalash, undan samarali foydalanish pedagogikaning istiqbolli konseptsiyalarini ilg’or pedagogik texnologiyalarni yaratish ilmiy tadqiqot metodlarini rivojlantirishga bog’liq.

Metodologiya. Dastlab adabiyotlar ro’yxati tuziladi, asosiy g’oyaviy manbalar aniqlanadi. Adabiyotlarni o’rganish bo’yicha konspekt, tezis, annotatsiya tuziladi. Maqsadga muvofiq sitatalar yozib olinadi. Sitatalar olganda adabiyotlarning aynan muallifning nomi, nashriyoti, necha sahifaligi va qaysi bobdan olingani ko’rsatiladi. Agar internetdan olingan bo’lsa, manba va uning sayti aniqlanadi. Demak, adabiyotlar va arxiv xujjatlarining manbalarini maqsadli o’rganish ilmiy pedagogik tadqiqotning samaradorlik shartidir.

Kuzatish pedagogik ilmiy tadqiqotning asosiy yo’llari, usullaridan biridir. Kuzatish ilmiy tadqiqot metodi aniq maqsadga qaratilgan, reja asosida pedagogik voqeylikni, jarayonni mohiyatini, qonuniyatlarini

aniqlash yo’llari, usullaridir. Oddiy kuzatishdan ilmiy tadqiqot kuzatishi quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi.

A) Ilmiy kuzatish aniq maqsadga qaratilgan ma’lum g’oya, ilmiy faraz asosida tashkil etiladi. Masalan, u yoki bu ijtimoiy guruhda mafkuraviy immunitetni shakllanganlik holatini aniqlash, o’tkazilgan tajriba natijalarini baholash, tarbiyaviy tadbirlarni ta’sir imkoniyatlarini aniqlash, ta’lim texnologiyasi asosida dars samaradorligini aniqlash bo’lishi mumkin.

B) Ilmiy kuzatishni reja asosida tizimli tashkil etilishi. Tadqiqotchi qo’ygan maqsadi bo’yicha kuzatish dasturini tuzadi, vaqtni belgilaydi, kuzatish vositalarini aniqlaydi, natijalarni umumlashtiradi. Kuzatish metodidan samarali foydalanish uchun tadqiqotchi amaliy gipoteza, dalil mezoni va olinadigan natija bir- biriga mosligiga e’tibor berishi zarur.

V) Obyektivlik ilmiy kuzatish metodining asosiy tamoyilidir. Voqeylik hodisalarni bor holatini yozib borish, texnika vositalari: magnitafon, ko’rsatuv vositalaridan foydalanish takroran kuzatish imkonini beradi. Ilmiy kuzatishning o’ziga xos xususiyati tabiiy pedagogik jarayonni tahlil etishda. Chunki, pedagogik jarayonni ilmiy kuzatishni tashkil etishda subyektiv holatlar uchrashi mumkin. Subyektivlikka, Pedagogik voqe’likni hohish istak asosida tahlil etish, xulosani ilmiy qimmatini tushiradi. Fanda kuzatish metodining bir necha usullari mavjud. Pedagogik ilmiy tadqiqotda kuzatish obyekti uzluksiz ta’lim-tarbiya jarayoni, yoshlar, pedagoglar, ota- onalar faoliyati, muayyan pedagogik vaziyatlar. Masalan, kuzatish obyektining mavjud vaziyatda holati:

- vaziyatdagi holatning asosiy sababi psixik voqe’lik;
- kuzatish obyektining jamoada tutgan o’rni, jamoaga munosabati;
- so’z va amaliy faoliyatning bog’liqligi;
-ma’naviy-axloqiy, estetik, emotsional darajasi;
- nutqi, mimikasi, o’zini tutish xususiyati, ularni boshqa vaziyatdagi holati kabilar obyektiv hisobga olinadi.

Kuzatishda mavjud holat, voqe’lik tezda yozib borilishi shart, ayrim qirralari, dalillar vaqtida yozib borilmasa yoddan ko’tarilishi mumkin.

Birinchidan, ilmiy pedagogik kuzatishda o’rganayotgan obyektning qo’yilgan maqsad bo’yicha mavjud sharoitda ichki holati, faoliyati;

Ikkinchidan, ichki va tashqi holatining uyg’unligi, faoliyatda namoyon bo’lishi;

Uchinchidan, faoliyatni izchilligi, uzviyligi holati aniqlanadi.

Ilmiy kuzatish bevosita va bilvosita tashkil etilishi mumkin. Bevosita kuzatishda ilmiy izlanuvchi o’zi amalga oshiradi, har xil vaziyatda izchil kuzatish natijasini yozib boradi. Bilvosita ilmiy tadqiqotda yordamchilarning qatnashishi, mutaxassislar ishtiroki ularni tadqiqot maqsadini xabardorligi muhimdir. Tadqiqotda hamkasblar, talabalar, maktabdan tashqari ta’lim muassasasi xodimlari qatnashishi mumkin. Shuningdek, o’z-o’zini kuzatish, yuqori sinf o’quvchilari o’rta-maxsus ta’lim, oliy o’quv yurti talabalari orqali tadqiqot maqsadiga ko’ra amalga oshiriladi.

Pedagogik ilmiy tadqiqot gipotezasiga ko’ra ilmiy kuzatish ochiq va yopiq shaklda olib borilishi mumkin. Ko’pgina hollarda ochiq kuzatishda tadqiqot maqsadi aniqlanganda tashqi kuzatishda obyektiv holat o’zgarishi mumkin.

Muhokama. Pedagogik ilmiy kuzatish qisqa va uzoq muddatli bo’lishi mumkin. Qisqa muddatli ma’lum soatda, daqiqalarda o’tkazilishi mumkin, tadqiqot maqsadida tezkorlik, ayrim holatlarda qo’llaniladi.

Uzoq muddatli ilmiy kuzatish bir necha yilgacha bo’lish, ijtimoiy munosabatlar rivojini aniqlashda, kompleks muammolarni aniqlashda qo’llaniladi. Bunday kuzatishni voqe’likning sababini aniqlash, prognozlash, o’zlashtirishni yaxshilash masalalarida qo’llaniladi.

Ilmiy kuzatish metodi eng ko’p qo’llaniladigan va murakkabidir. Shuning uchun o’tkazishga alohida tayyorgarlik ko’rish, iloji boricha oldindan mashq qilib ma’lum ko’nikmaga ega bo’lish zarur. Ya’ni, aniq reja asosida tashkil etish, konseptsiya, ilmiy faraz, tadqiqotchining fikriy tajribasi o’qituvchi va o’quvchilar munosabati hisobga olinadi. Kuzatish jarayonida dalil aniq qayt etilishi, ishtirokchilar va vaqti aniq ko’rsatilishi shart. Kuzatish natijalarini tahlil etish, qiyoslash, umumlashtirish tadqiqotchiga aniq xulosa qilish imkoniyatini beradi.

Anketa metodi ijtimoiy so’rov shaklida sotsiologiya, psixologiyada ham qo’llaniladi. Pedagogik tadqiqotda ta’lim-tarbiya jarayonining ichki qonuniyatlarini aniqlash, ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish tamoyillarini, yo’llarini, shakllarini ishlab chiqishda anketa-so’rov metodi muhim o’rin tutadi. Pedagogik faoliyatni o’rganish bo’yicha 1899- yilda ilg’or mamlakatlarda 600 o’qituvchi, 1911- yilda 14 ming o’qituvchida so’rovnoma o’tkazilgani ushbu metodning tarixiyligidan dalolat beradi.

Anketa frantsuzcha surishtirish, tergov, ma’lumotlar olish uchun to’ldirilgan varaqa pedagogik ilmiy tadqiqotning muhim metodlaridan biridir. Pedagogik ilmiy tadqiqotning dastlab ishchi ilmiy farazi, rejasi

tuzilgandan keyin anketa so’rovnoma ishlab chiqiladi. So’rovnomada avvalo, axborot olishdan boshlanadi, keyin anketa tuziladi. Intervyu inglizcha uchrashuv, ikkinchi ma’noda: xabar intervyu va mulohazali intervyu bir yoki bir necha shaxs bilan muhim masala yuzasidan suhbat.

Demak, anketa so’rovnomada, avvalo, tadqiqot obyekti bilan mulohaza, suhbat o’tkazish o’rganayotgan muammoga shaxsni yoki ijtimoiy guruhni munosabatini aniqlash mumkin. Suhbatlar umumiy shaklda ham tashkil etilishi, qisqa va batafsil suhbat orqali ijtimoiy guruh shaxsning holati aniqlanadi. Belgilangan mavzuda suhbatda maqsadga muvofiq mulohaza yuritish, tadqiqot obyektini hamkorlikka yo’naltirish mumkin. Shuni e’tiborga olish lozimki, suhbatda ham anketada ham savollar, ochiq, yopiq, yarim ochiq ma’noda mazmunda bo’ladi.

Anketa metodi qo’llashda mavjud sharoitda uning qulayligi, imkoniyati hisobga olinadi. Muammoning o’rganilganlik darajasini aniqlash izlanuvchiga o’z tadqiqot yo’nalishini belgilashda anketa metodi samarali bo’ladi. Ya’ni tadqiqot muammosiga doir maqsad, vazifalar bo’yicha anketalarning aniqligi, muhim qirralarni qamrab olgani ilmiy izlanish natijasini kafolatlaydi.

Anketa savollarini tuzishla tadqiqotchidan metodologik madaniyat talab etiladi. Savollarni mantiqan pedagogik qoidalarga mavjud shart sharoitga, o’rganilayotgan muammoga, ilmiy farazga mosligi; savollarda qisqa mantiq qoidalarining hisobga olinganligi; savollarni hamma uchun tushunarli bo’lishi; savollarga javoblar ifodalanganligi; ochiq savollarda javob beruvchi fikrini o’zi ifodalashga yo’naltirilganlik; yopiq savollarga alternativ «ha» «yo’q» javoblarida muammoning asosiy mohiyatini ifodalanishi kabilar.

Bo’lajak o’quvchilar, ya’ni pedagog magistrlar o’rtasida anketa so’rovnomada o’tkaziladi. Ularga mustaqil fikrni ifodalashga yo’llaydigan savollar beriladi. Pedagog magistrlar o’rtasida o’tkaziladigan anketa so’rovnomada quyidagi savollar tavsiya qilindi:

Mazkur tadqiqot Toshkent davlat pedagogika universiteti, Buxoro davlat pedagogika instituti, Chirchiq davlat pedagogika institutida o’tkazildi.

Sizning fikringizcha pedagog magistrlarni ijodiy faoliyatga metodologik tayyorlashda ko’proq nimalarga e’tibor qilish maqsadga muvofiq?

Сизнинг фикрингизча педагог магистрларни ижодий фаолиятга методологик тайёрлашда кўпроқ нималарга эътибор қилиш мақсадга мувофиқ?				
№	**Жавоблар**	**Эркаклар**	**Аёллар**	**Жами**
1.	Уларда кўпроқ ижобий фазилатларни шакллантириш	36	24	60
2.	Педагогик билим ва малакаларини ошириш	42	37	79
3.	Амалий машғулотларни кўпайтириш ва уларни методологик қўллаб-қувватлаш	31	29	60
4.	Устоз-шогирд тизимини ривожлантириш	48	36	84
5.	Методик адабиётларни кўпайтириш	23	20	43
6.	ОТМни битиргандан кейин ҳам 3 йил давомида тизимли ҳамкорлик асосида ишлаш	47	39	86
Жами:		**227**	**185**	**412**

Сизнинг фикрингизча бугунги ижтимоий муносабатлар кўпроқ қайдай фазилатларга таянади?				
№	**Жавоблар**	**Эркаклар**	**Аёллар**	**Жами**
1.	Дўстлик	30	27	57
2.	Меҳрибонлик	33	31	64
3.	Қўллаб-қувватлаб туриш	31	33	64

4.	Бир бирини тушуниш, ҳамфикрлилик	27	21	48
5.	Ишонч ва очиқ кўнгиллик	31	17	48
6.	Ҳақиқатни очиқ айта олиш	20	16	36
7.	Талабчанлик	22	12	34
8.	Садоқат	17	13	30
9.	Олижаноблик	16	15	31
Жами:		**227**	**185**	**412**

Нима дейсиз бугунги кунда ижтимоий муносабатларда қандай иллатлар кўпроқ салбий таъсир қилмоқда?

№	Жавоблар	Эркаклар	Аёллар	Жами
1.	Ҳасад, кўра олмаслик	32	29	61
2.	Рақобат, ўзини устун қўйишга интилиш	36	33	69
3.	Алдов, ёлғончилик	33	34	67
4.	Бир бирига ишонмаслик	29	23	52
5.	Фақат ўзини ўйлаш	33	19	52
6.	Бир-бирига ёвқараш	22	18	40
7.	Бир-бирини яхши билмаслик	24	16	40
8.	Умумий мақсаднинг йўқлиги	19	12	31
Жами:		**227**	**185**	**412**

Xulosa. Pedagog magistrlarni ijodiy faoliyatga metodologik tayyorlash samaradorligini oshirish maqsadida pedagogik tadqiqotlar o’tkazish maqsadga muvofiq. Jumladan, Anketa metodi tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda yordamchi vosita hisoblanadi. Dastlabki anketa so’rovnomada muammoni obyektiv holatini aniqlash imkoniyati yaratilsa, eksperimentdan keyin o’tkaziladigan anketa so’rovnomada tajriba natijalarini baholashga sharoit yaratiladi.

Adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O’zbekiston, 2023.
2. O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida»gi Qonuni // Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997.
3. Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida. O’zbekiston Respublikasining O’RQ-406-son Qonuni.2016 - yil 14- sentyabr // Xalq so’zi. – Toshkent, 2016. – № 182 (6617). – B. 1-2.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28- yanvardagi «2022-2026- yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida»gi PF-60-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/5841063.
5. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko’tarish to’g’risida. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3160-son Qarori. 2017- yil 28 -iyul.
6. Mirziyoev Sh.M. «Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz» mavzusidagi O’zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag’ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo’shma majlisidagi nutqi. – T.: O’zbekiston, 2016. – 56 b.
7. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: O’zbekiston, 2017. – 488 b.
8. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023- yil 11- sentyabrdagi «O’zbekiston – 2030» strategiyasi to’g’risida» gi PF-157-sonli Farmoni.
9. Ibragimov X.I., Abdullaeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi (darslik). – Toshkent: Fan, 2008. – 184 b.